



Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o'zbek tili
va adabiyoti universiteti



TASHENEV
UNIVERSITY



“Alisher Navoiy va XXI asr”

10-ULUSLARARO KONFERANSI

Toshkent-Shimkent, 2025-yil 6-fevral

“Әлішер Науаи және XXI ғасыр”


10-ХАЛЫҚАРАЛЫҚ КОНФЕРЕНЦИЯ

Ташкент-Шымкент, 6 ақпан 2025 жыл

“Alisher Navo'i and the 21st century”

10th INTERNATIONAL CONFERENCE

Tashkent-Shymkent, February 6, 2025



**Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
Qozog'iston Respublikasi Jumabek
Tashenev nomli universitet**

«ALISHER NAVOIY VA XXI ASR»

**mavzusidagi 10-uluslararo konferansi
materiallari**

2025-yil 6-fevral

Toshkent – Chimkent – 2025

UO'K: 821.161.1=512.133

KBK: 83.3 (50')

A 51

Mas'ul muharrirlar:

Shuhrat SIROJIDDINOV,

filologiya fanlari doktori, akademik
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili
va adabiyoti universiteti rektori

Kanat BAYBOLOV,

Jumabek Axmetuli Tashenev nomli universitet rektori,
texnika fanlari doktori, professor

Tahrir hay'ati:

Boqijon To'xliyev (O'zbekiston), Nurboy Jabborov (O'zbekiston), Parida Bayneeva (Qozog'iston), Kemal Yavuz Ataman (Turkiya), Yashar Qosim (Ozarbayjon), Islam Jemeney (Qozog'iston), Farhod Rahimiy (Eron), Sholpan Arzimbetova (Qozog'iston), Karomat Mullaxo'jayeva (O'zbekiston), Janna Botabaeva (Qozog'iston), Baxtiyor Fayzullayev (Tojikiston), Dilnavoz Yusupova (O'zbekiston), Nozliya Normurodova (O'zbekiston), Shahlo Naraliyeva (Qozog'iston), Ilyos Ismoilov (O'zbekiston), Azizullah Aral (Afg'oniston), Orzigul Hamroyeva (O'zbekiston), Ozoda Tojiboyeva (O'zbekiston)

Ushbu to'plamda "Alisher Navoiy va XXI asr" mavzusidagi 10-uluslararo konferansi materiallari jamlangan. To'plamda Alisher Navoiy adabiy-ilmiy merosining mumtoz adabiyotimizdagi o'rni va bugungi kun uchun ahamiyati, shuningdek, shoir ijodiga bog'liq holda matnshunoslik va tilshunoslik muammolariga doir ilmiy maqolalar o'rin olgan. Navoiyshunoslikning bugungi holati va istiqboli borasida muayyan tasavvur berishi uning ahamiyatini belgilaydigan omillardan biridir. Kitob filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistrantlar va bakalavr talabalari hamda keng o'quvchilar ommasiga mo'ljallangan.

Mualliflar qarashi va asarlar nomlaridagi imlo tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.

**Әлішер Науаи атындағы Ташкент
мемлекеттік өзбек тілі мен әдебиеті университеті**

**Қазақстан Республикасы Жұмабек
Тәшенев атындағы университет**

«ӘЛІШЕР НАУАИ ЖӘНЕ XXI ҒАСЫР»

**тақырыбындағы 10-халықаралық
конференция материалдары**

2025 жыл 6 ақпан

Ташкент – Шымкент – 2025

4. Навоий, Алишер. Тўла асарлар тўплами. X жилдлик. VIII ж. – Т.: Фафур Фулом номидаги НМИУ, 2011.
5. Навоий, Алишер. Тўла асарлар тўплами. X жилдлик. IX ж. – Т.: Фафур Фулом номидаги НМИУ, 2011.
6. Инжил. Тавротдан “Ибтидо”. Забур. – Стокгольм: Библияни таржима қилиш институти, 1993.
7. Насафий, Азизиддин. Комил инсон китоби (О. Давлатов таржимаси). – Т.: Фафур Фулом номидаги НМИУ, 2021.
8. Рустамов А. Навоийнинг бадиий маҳорати. – Т.: Ғ.Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1979.
9. فرهنگ اصطلاحات و تعبيرات عرفانی. سيد جعفر سجادی. – تهران: طهوری. 1370. س. 196.
10. АКМЕИЗМ, ИЛИ АДАМИЗМ – Литературная энциклопедия - Литература - Slovar.cc
11. <https://mebelniyguru.ru/wiki/adamizm-v-literature-osobennosti-i-opredelenie>
12. <https://mebelniyguru.ru/wiki/adamizm-v-literature-osobennosti-i-opredelenie>
13. Писатель Джон Мильтон: биография и библиография.
14. 62-КИТОБ / 62 | Naadis.islom.uz | Нубувват марваридлари
15. <https://www.bing.com/search?pglt=41&q=Xammartu+tiynata+Odama+biyadiy&cvid=6803c09c>

XORAZM ADABIY MUHITIDA DEBOCHANAVISLIK AN'ANALARI

Karimova Faridaxon Isakovna,

filologiya fanlari doktori, dotsent, Namangan davlat universiteti

faridaxonk@mail.ru

10.52773/tsuull.conf.navoiy.2025/YUVK2847

Резюме: Maqolada Xorazm adabiy muhitining Munis, Ogahiy, Tabibiy kabi iste'dodli vakillari ijodida Alisher Navoiyning devonga debocha yozish an'analari ijodiy davom ettirilganligi xususida fikr yuritilgan. Mazkur shoirlar devonlariga bitilgan debochalardagi an'anaviylik va o'ziga xoslik masalalari tahlilga tortilgan.

Kalit so'zlar: Xorazm adabiy muhiti, devonchilik an'analari, debocha, hamd, na't, devonning yaratilish tarixi, an'ana va o'ziga xoslik.

TRADITIONS OF DEBOCHANAVIS IN THE KHOREZM LITERARY ENVIRONMENT

Absrtact. This article explores the creative continuation of the tradition of writing prefaces to the divan of Alisher Navoi, specifically in the works of prominent representatives of the Khorezm literary milieu, including Munis, Ogakhi, and Tabibi. The study critically examines the interplay of tradition and originality in the prefaces to their divans, analyzing how these poets both adhered to and innovated upon established literary conventions. Through this analysis, the article highlights the distinctive features of their contributions and evaluates the evolution of preface-writing within the context of Khorezm's literary development.

Keywords: Khorezm literary environment, divan traditions, preface, hamd, nat, history of the creation of the divan, tradition and uniqueness.

Ma'lumki, Xorazm azaldan madaniyat beshigi bo'lgan zamin. U o'z bag'rida jahon ilm-fani, madaniyati va san'ati rivojiga salmoqli hissa qo'shgan o'nlab qomusiy olimlarni, shoir-u allomalarni kamolga yetkazgan. Xususan, XIX va XX asr boshlari Xorazm adabiy muhiti har jihatdan gullab-yashnadi; mumtoz adabiyotdagi devonchilik an'analari ijodiy rivojlantirildi, adabiy tur va janrlar rivoj topdi, tarixnavislik va

tarjimachilik sohasida muhim yutuqlarga erishildi. Munis, Ogahiy, Feruz, Bayoniy, Avaz O'tar kabi shoirlar ijodi buning yaqqol dalilidir.

Shuni ta'kidlash kerakki, Alisher Navoiy ijodi keyingi asrlardagi barcha o'zbek shoirlari uchun har jihatdan ibrat bo'ldi. Ayniqsa, Navoiyning devonchilik sohasidagi an'analari ijodiy davom ettirildi. Bu davr shoirlari Navoiy she'riyatining g'oyaviy-badiiy jihatlaridan oziq oldilar, shoir g'azallariga nazira va muxammaslar bog'ladilar. Shuningdek, Munis, Ogahiy, Tabibiy, Faqiriy, Komyob kabi Xorazm adabiy muhiti vakillari Navoiyning debochali devon tartib berish an'anasini ham davom ettirdilar va unga ijodiy munosabatda bo'ldilar.

Navoiy an'analaridan bahramandlik Shermuhammad Munis, Muhammadrizo Ogahiy, Ahmad Tabibiy kabi shoirlarning devonlari, xususan, devonga yozilgan debochalari kompozitsiyasi va uslubida, hatto til xususiyatlarida ham yaqqol namoyon bo'lgan.

Xorazm adabiy muhitining yirik iste'dodli vakillaridan biri Shermuhammad Munis Xorazmiy so'z mulkida, ma'nolar olamida o'ziga pir deb bilgan Navoiy yo'lini davom ettirishga intilgan. Shoirning 10 000 baytga yaqin she'riy merosi mavjud bo'lib, devon tarzida yetib kelgan. Unda shoirning g'azal, muxammas, musaddas, ruboiy, tuyuq, qit'a, qasida, chiston kabi o'ndan ortiq mumtoz janrlarda bitilgan asarlari jamlangan va devonga debocha bitilgan.

Munis debochasi an'anaviy hamd-u na't bilan boshlanib, o'ziga xos xotima bilan yakunlanadi. Matn bayoni davomida shoir o'zi haqida ma'lumot berib, maktab va madrasada o'qigan yoshlik yillari haqida xabar beradi. Shuningdek, devondagi she'rlarning qay tarzda dunyoga kelganligi, ularning umumiy mavzui haqida ma'lumot beriladi. Devonlarning yaratilish tarixi bayon qilinadi. Ma'lum bo'lishicha, Munis o'zida devon tuzish fikrining bo'lmaganligi, Muhammad Rahimning akasi – amir Qutlug'murod inoqning taklifi bilan devon bilan tartib berganligini ta'kidlaydi. Shundan so'ng Munis devonning she'riy mundarijasini beradi. Debochalardagi an'anaviy elementlardan biri – o'z she'rlaridagi sahv-u xatolar uchun kitobxondan uzr so'rash bilan debocha o'ziga xos tarzda yakunlanadi.

Munis debochada she'riyatdagi ustozlari haqida so'z yuritmaydi. Lekin debochadagi ba'zi xususiyatlardan, shuningdek, devondagi ayrim g'azal va muxammaslardan ma'lum bo'ladiki, shoir Navoiyni ham o'ziga ustoz deb bilgan, uning badiiy ijod sohasidagi an'analarini davom ettirishga intilgan. Munis g'azal va ruboiylarida "ma'ni" yo'lida Navoiyni o'ziga "homiy" va "pir" (ustod) deb ataydi, so'z o'yini tarzida ismlaridagi o'zakdoshlik ham bejiz emasligini ta'kidlaydi:

Qilsa hosid daxli bejo so'z aro yo'qtur g'amim,

Kim bu ma'nida Navoiy ruhi homiydur manga [Мунис, 1980:11].

So'z ichra Navoiyki jahongirdurur,

Munisga maoniy yo'lida pirdurur.

Yo'q g'ayriyat andin o'zgakim, ayturlar

Bu Shermuhammad, ul Alisherdurur [Мунис, 1980:214].

Munisning 9 ta muxammasdan 6 tasini Navoiy g'azallariga bog'laganligi ham uning ustoz ijodiga naqadar muhabbati kuchli ekanligining dalilidir. Umuman, shoir ijodiga Navoiyning ijodiy dahosi samarali ta'sir ko'rsatdi. Bu narsa uning devoniga yozgan debochalarida ham o'z aksini topdi. Shu bilan birga, Munis fors-tojik adabiyotining mumtoz vakillari va zamondosh shoirlarni ham o'ziga ustoz deb biladi. Buni shoirning "Mango" radifli g'azali tasdiq etadi.

Munis debochasi an'anaviy sharqona uslubda yozilgan bo'lib, ko'p jihatlari bilan Navoiy debochalari uslubiga hamohangdir. Masalan, Munis Qutlug'murod inoqning devon tuzish haqidagi taklifiga javoban: "Oning uchun ne ibo qilgali qudratim bor erdi va ne qabul etgali jur'atim" [Мунис, инв.№63:13-в], – deb yozadi.

Umuman, Munis debochasi adabiyot tariximizda yaratilgan debochalar kabi umumiy va o'ziga xos xususiyatlarga egadir. An'anaviy hamd-u na't bilan boshlanib, xotima bilan yakunlanishi, yoshlik-yillari, she'riy ijodi va uning umumiy mavzu doirasi, davr hukmdorlarining madhi, devonning yaratilish tarixi va mundarijasi kabi masalalar va bu masalalarning Navoiy debochalaridagi kabi o'ta sharqona uslubda bayon etilishi, ya'ni bayondagi obrazlilik, ko'tarinkilik, nasr va nazmning qorishiq ishlatilishi kabi xususiyatlar Munis debochasining an'anaviy jihatlari. Shu bilan birga, debochada shoirning tarjimai holi, turmush sharoiti, kayfiyatiga oid juda ko'p qimmatli ma'lumotlar mavjudki, ular shoirning hayot yo'li, dunyoqarashi, ijtimoiy nuqtayi nazarini o'rganishda muhimdir.

Xususan, "Munis ul-ushshoq" debochasida shoir Avazmuhammad inoq taxtga chiqqach, mamlakatda nisbatan osoyishtalik o'rnatilganligini, olim-u fozillardan tortib oddiy xalqqacha "maykashi kosai huzur" ekanligini bayon qiladi. Shoir bu davrdagi o'zining kayfiyati ham huzurbaxsh ekanligi, olimu fozillar suhbatlariga doxil bo'lganligi, shu suhbatlar ta'sirida she'rlar yozganligini ta'kidlaydi. Lekin bir oz vaqt o'tgach, "charxi gardon" uning boshiga turli balolar yog'diradi, otasi, og'a-inilari birin-ketin olamdan o'tadi, ro'zg'or tashvishlari boshiga tushadi:

"Nasibim g'am uza g'am bo'ldi charxi gardondin,

Musibat uzra musibat yetushti davrondin.

Andoqkim, ota va oqo va ini mani bekaslik ibtilosig'a sazovor va motamkashlik balosig'a giriftor qildi.

Mundin o'zga yana navoyib va olomekim, sharhu itnobi mujibi kuduratdur – nasibim bo'ldi [Мунис, инв.№63:6-7-в]. Debochada keltirilgan bunday ma'lumotlar shoir hayot yo'lini yoritishda adabiyotshunoslar tomonidan foydalanib kelindi.

Ikkinchidan esa Munis debochasida voqealar tasviri davomida shoirni tarixchi olim sifatida ham ko'ramiz. Bizga ma'lumki, Munis Xorazm tarixiga doir "Firdavs ul-iqbol" asarini yozgan. Bu asar qadimgi davrdan 1813-yilgacha bo'lgan voqealarni qamrab oladi. Munis debochada ham voqea-hodisalarni tarixiylik nuqtayi nazaridan aniq va izchil bayon etishga, o'zlari yashab turgan davr hukmdorlari olib borgan siyosatni baholashga harakat qiladi. Masalan, Munis otasi, og'a-inisidan ajrashi, turmush tashvishlariga ro'baro' bo'lishi kabi voqealarning sodir bo'lgan vaqtini shunday bayon qiladi: "Xususan, sanai hijriya ming ikki yuz o'n beshdin (1215) to hazrat...Eltuzar Muhammad Bahodirxonning... voqelai hoyila va hodisayi g'oyilasig'achakim sipehri vojgun va falaki buqalamunkim, hamisha ahli donish va arbobi benish mahosamag'i anga jibilliydir" [Мунис, инв.№63:6-в]. Bundan shu narsa anglashiladiki, Munis boshiga tushgan musibatlar 1800-yildan Eltuzarxonning dahshatli voqeasigacha (1806-yilda Eltuzarxon kemasi bilan Amudaryoga g'arq bo'ladi) bo'lgan davrda yuz beradi.

Navoiydan so'ng "eng ko'p va xo'b" badiiy barkamol asarlar yaratgan talantli shoir Muhammad Rizo Ogahiy ham "Ta'viz ul-oshiqin" devoniga debocha bitdi. Shoir g'azaliyotida yorqin namoyon bo'lgan Navoiy an'analari devon debochasida ham o'z aksini topdi.

O'zFA Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondidagi Ogahiyning 938-inventar

raqamli “Ta’viz ul-oshiqin” devonida debocha mavjud. Debochada shoirning tarjimai holi va ijodi, zamona hukmdori va shoir o’rtasidagi munosabatlar, devonning yaratilish tarixi, janrlar tarkibi kabi masalalar o’z ifodasini topgan.

Ogahiy debochasi an’anaviy hamd-u na’t bilan boshlanib, o’ziga xos xotima bilan yakunlanadi. Matn bayoni davomida shoir o’z tarjimai holi haqida ma’lumot beradi. Shuningdek, devondagi she’rlarning qay tarzda dunyoga kelganligi, ularning umumiy mavzui, janrlar tarkibi haqida to’xtaladi. Devonning yaratilish tarixini bayon qiladi. Ma’lum bo’lishicha, Ogahiy Muhammad Rahim II – Feruzning amri bilan tartib bergan. Ogahiy o’z she’rlaridagi saxv-u xatolar uchun kitobxondan uzr so’rash bilan debochani o’ziga xos tarzda yakunlaydi.

Ogahiy debochada she’riyatdagi ustozlarini tilga olmaydi. Lekin debochaning bayon uslubi, shuningdek, devondagi ayrim g’azal va muxammaslardan ma’lum bo’ladiki, shoir Navoiyni ham ustoz sifatida e’tirof etadi. Uning devonchilik sohasidagi an’analari davom ettirishga intiladi. Quyidagi baytda Ogahiy Navoiyning navosidan ilhom olganligi uchun she’rlari ko’pchilikka manzur ekanligini ta’kidlaydi:

Ogahiy kim, topgay erdi sozi nazmingdin navo,

Bahra gar yo’qtur Navoiyning navosidin senga [Орахий, 2023: 41].

Ogahiyning 83 ta muxammasdan 30 tasini Navoiy g’azallariga bog’laganligi ham uning ustoz ijodiga naqadar muhabbat kuchli ekanligining dalilidir. Umuman, shoir ijodiga Navoiyning ijodiy dahosi samarali ta’sir ko’rsatdi. Navoiy va Ogahiy debochalarining ayrim jihatlarini qiyoslashning o’ziyoq fikrimizni tasdiq etadi.

Ogahiy devonining yaratilish tarixini bayon qilar ekan, zamona hukmdori va uning shoir ijodiga munosabati xususida batafsil to’xtaladi. Shoir Muhammad Rahim Soniy taxt tepasiga kelgach, shoir va fozillarga katta e’tibor berganligi, saroydagi adabiy majlislarda ularning she’rlari o’qilib, xonning iltifotiga sazovor bo’lganligi xususida so’zlaydi. Kunlarning birida Ogahiy ham bir necha g’azal va muxammas, qasidalarini saralab, varaqlarga ko’chirib tuhfa sifatida yetkazadi. Xon uning she’rlarini o’qib, ko’proq “shavqangez g’azallar” aytishga targ’ib qiladi. “Qarilig’ dardi ostida qaddi dol” bo’lgan shoir xonning iltifoti va madadi bilan g’azal, muxammas, qasidalar bitadi. Shoir shu tariqa bitilgan she’rlarini saroydagi adabiy majlislarda xonning “kimyoasar nazari” dan o’tkazadi. Shu o’rinda Alisher Navoiyning o’z g’azallarini, “Badoye’ ul-bidoya” va “Xazoyin ul-maoniy” debochalarida ta’kidlaganidek, Husayn Boyqaroning muborak nazaridan o’tkazish uchun uning huzuriga yetkazganligini eslash kifoya.

Alisher Navoiyning “Badoye’ ul-bidoya” debochasida Husayn Boyqaro shoir she’rlarini farzandga qiyoslaydi va ularni darbadar qilmasdan bir joyga jamlashga, ya’ni devon tuzishga farmon beradi:

Bu nav’ istaydur emdi royi oliy,

Ki qilg’ay fikrating devon xayoli.

Jahonda kimga bo’lsa muncha farzand.

Ki bo’lg’ay barcha ruhafzo-vu dilband.

Ravomudur bizing farruh zamonda,

Alarni darbadar qilmoq jahonda [Навоий, 1987:19].

She’rlarni farzandga qiyoslash Ogahiy debochasida ham an’anaviy unsur sifatida mavjuddir. Muhammad Rahim Soniy Ogahiyga devon tartib berish va unga debocha bitishni amr qilar ekan, shoir she’rlarini insondan yodgor qoluvchi yaxshi farzandlarga qiyoslaydi va ularning zamon hodisotlari tufayli yo’qolib ketmasligi uchun devon holida jamlashni ta’kidlaydi:

Kishiga she'rdin yo'q yaxshi farzand
Ki, doyim boqi ul farzandi dilband.
Ravo ko'rma alarg'a darbadarlik,
Yatimoso hamisha navhagarlik.
Alar haqqida mehr oyinini tuz,
Borisin yig'nabon devong'a kirguz [Орахий, 2023:22].

Ogahiy debochasi an'anaviy sharqona uslubda yozilgan bo'lib, ko'p jihatlari bilan Navoiy debochalari uslubiga hamohangdir.

An'anaviy hamd-u na't bilan boshlanib, xotima bilan yakunlanishi, yoshlik-yillari, she'riy ijodi va uning umumiy mavzu doirasi, davr hukmdorlarining madhi, devonning yaratilish tarixi va mundariyasi kabi masalalar hamda bu masalalarning o'ta sharqona uslubda bayon etilishi, ya'ni bayondagi obrazlilik, ko'tarinkilik, nasr va nazmning qorishiq ishlatilishi kabi xususiyatlar Navoiy va Ogahiy debochalarining umumiy jihatlari. Shu bilan birga, Ogahiy debochasi o'ziga xos xususiyatlarga ham egadir.

Ogahiy yoshlik yillarida hali madrasani tugatmasdan burun "charxi kajraftor" uni "rango-rang" balolarga giriftor qilganligini, "sipohdorlig' mansabi" "shug'li zanjir" kabi butun vujudini chirmab olganligini ta'kidlaydi. Chunki Ogahiy 1929-yilda Munis vafotidan so'ng, madrasadagi o'qishini to'xtatishga majbur bo'ladi. U Olloqulixon tomonidan tog'asining o'rniga miroblik vazifasiga tayinlanadi. Shoir saroyda miroblik vazifasida ishlab yurgan yillarda turli toifadagi kishilar va ularning hayoti bilan chuqur tanishadi. Shoir she'rlari ana shu hayotiy taassurotlar asosida yaratilganligi shubhasizdir. Bu haqda debochada u shunday yozadi:

"Eturdim har jamoatg'a o'zumni,
Ochib ibrat bila har yon ko'zumni".
Borining holidin bo'ldum xabardor,
Ayon ko'nglunga bo'ldi barcha asror.

Ushbu sayr asnosida har toifaning holig'a loyiq va har jamoaning af'olig'a muvofiq bir mazmun shohidining xayoli xotirim ko'zgisiga hutur qilsa erdi, gunogun iboralar bilan rangin nazmlar libosin kiydurub, dilkash suratlar bila xaloyiq nazarida namoyish berur erdim..." [Орахий, 2023:17]. Shuningdek, bu she'rlarning ko'pchiligi oddiy xalq orasida mashhur bo'lib, katta-yu kichikning tilidan tushmaydi: "Alarning ko'prog'i xaloyiqning tillari askorida mazkur, ko'ngullari avroqida mastur bo'lub, olam atrofi va falak aqtorida quyosh yanglig' shuhrat tutub, akobir majolisida rutb ul-lison va assog'ir mahofilida viridi zabon bo'lur erdi" [Орахий, 2023:17].

Yuqoridagi ma'lumotlar, birinchidan, Ogahiyning hayot yo'lini yoritishga xizmat qilsa, ikkinchidan, shoirning dunyoqarashi, ijtimoiy nuqtayi nazarini belgilashda muhimdir. Ogahiy birinchi galda saroydagi xon va amir-amaldorlarning emas, balki avom xalq manfaatlarini himoya qildi. She'rlarida ham ustoz Navoiy kabi insonparvarlik tamoyillarini ilgari surdi. Shuning uchun ham uning she'rlari xaloyiq orasida mashhur bo'ldi.

Ikkinchidan esa, Ogahiy debochasida uning tarixchi olim sifatidagi fazilatlarini yorqin namoyon bo'ladi. Bizga ma'lumki, Xorazm adabiy muhitidagi tarixnavislik an'analarini muvaffaqiyatli davom ettirgan Ogahiy "Riyozi ud-davla", "Zubdat ut-tavorix", "Jome' ul-voqeoti Sultoniy", "Gulshani davlat", "Shohidi iqbol" kabi tarixiy asarlarini yozgan. Ogahiy debochada ham voqea-hodisalarni tarixiylik nuqtayi nazaridan aniq va izchil bayon etishga, o'zi yashab turgan davr hukmdorining ijtimoiy

faoliyatiga munosabat bildirishga harakat qiladi. Xususan, Sayid Muhammad Bahodirxon taxtga o'tirgandan so'ng, uning mamlakatda olib borgan siyosatini ijobiy baholaydi: "... ul mamlakatga podshohona siyosat va mulukona adolat bila o'zga yanglig' ziynat va nizom berdi va har toifani o'z holig'a ko'ra marhamat va navozishlar bila xushdil va bahramand va har jamoani o'z martabasig'a yarasha makramat va baxshishlar bila xushhol va xursand qildi" [Орахий, 2023:17].

Ogahiy debocha so'ngida barcha ijodiy asarlari – devoni, tarjima va tarixiy asarlari ro'yxatini keltiradi. Bu esa boshqa debochalarda uchramaydi.

XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida yashab, ijod etgan Xorazm adabiy muhiti vakillaridan biri Ahmad Tabibiy (1869-1911)dir. U talantli lirik shoir bo'lsa-da, hozirgacha, asosan, "Majmuai si shuaro shohi payravi Firuzshohiy" nomli tazkirasi o'rganib kelindi [Маткаримова, k2007]. Shoir devonlarini tadqiq qilishga esa endi kirishilmoqda [Амонов, 2020:220-223; 202-206].

Ahmad Tabibiy sermahsul shoir bo'lib, o'zbek va tojik tillarida ijod qilgan. She'rlaridan besh devon tuzgan. Ularning 3 tasi o'zbekcha, 2 tasi tojikchadir. Shoir O'zFASHI qo'lyozmalar fondida saqlanayotgan 6226 inventar raqamli "Munis ul-usshoq" devoni debochasida bu haqda shunday yozadi: "...bu faqir qo'lida jam' bo'lg'on madaddin kitobning jumlası besh devondurkim, uch devoni turkiy lafzi bila fasohatorodur. Va ikki kitob forsiy alfozi bila balog'atpiyrodur. Avvalg'i devong'akim, Sultoni oliyjohi janobi muolli alqobig'a hadiyalig' sababidin "Tuhfat us-sulton" deb tasmiya qilindi. Ikkinchi devong'a usshoq unsiyati jihatidin "Munis ul-usshoq" ismi bila musammam bo'ldi. Va uchlonchi devong'a ishq holotin muoyana ko'rguzuvchi vajhidin "Mir'ot ul-usshoq" oti bila mavsum etuldi. To'rtinchi devong'a oshiqlar o'qub mutolia qilur hangomlarida hayriyat fazolig' mujibi bila "Hayrat ul-usshoq" deb ism berildi. Beshlonchi devonni bedillar inbisoti jilvagohi bo'lg'oni boisi bila "Mazhar ul-ishtiyog" deb ataldi" [Табибий, инв.№6226:8а-8б-в].

Debocha an'anaviy tarzda, ya'ni Yaratganni ulug'lash bilan boshlanadi. Shunisi xarakterliki, na't qismida Muhammad payg'ambar bilan to'rt xalifa – Abu Bakr Siddiq, Umar ul-Foriq, Usmon, Alilar, shuningdek, bibi Fotimaning o'g'illari Hasan va Husayn madhi beriladi. Bu narsa Tabibiyning Navoiy debochalari bilan birgalikda fors-tojik adabiyotidagi debochalar, xususan, Xusrav Dehlaviy debochalari bilan tanish ekanligini ko'rsatadi. Chunki Navoiyda debochalarning Alloh va payg'ambarlar madhiga bag'ishlangan hamd-u na't qismi birmuncha ixcham. Dehlaviyning "G'urrat ul-kamol" debochasida hamd-u sano va na't qismi nisbatan kengroq, Alloh va Muhammad payg'ambar (s.a.v.) bilan birgalikda uning sahobalari bo'lmish to'rt xalifa madhi ham beriladi. O'zbek adabiyotida Shavqiy va Tabibiy debochalarida xalifalar ham madh etiladi.

Tabibiy debochasida Navoiy debochalarining ta'siri yaqqol seziladi. Masalan, shoir ota-onasining saroyga aloqador shaxslar ekanligini ta'kidlaydi:

Otam bu borgohg'a erdi banda,

Onam bu ostong'a sarafkanda [Табибий, инв.№6226:6а-в]

Bu baytlar Navoiyning "Badoye' ul-bidoya" debochasidagi quyidagi misralariga hamohangdir:

Otam bu ostonning xokbezi,

Onam ham bu saro bo'ston kanizi [Навоий, 1987:17].

Navoiy debochasidagi she'rni farzandga qiyoslash, boshqa debochalar qatori, Tabibiy debochasida ham uchraydi.

Muhammad Rahimxoni soniy Tabibiyga devon tartib berishni amr qilar ekan, farzandlarini – she’rlarini sargardon qilmoq odamgarchilik shevasidan yiroq ekanligini ta’kidlaydi:

Erur she’r farzandi shoir mudom,
Jigar porasi balki keldi tamom.
Jahon mulki chun bor, emas poydor,
Va lekin suxan bo’lg’usi yodgor.
Bas emdi aning jami vojib erur,
Muruvvat qilurg’a munosib erur [Табибий, инв.№6226:7а-в].

Tabibiy Muhammad Rahimxoni soniy (Feruz) ni madh etar ekan, shu o’rinda uning huzuridagi she’riy suhbatlar haqida ma’lumot beradiki, bu narsa o’sha davr saroy muhitidagi adabiy hayot darajasini belgilashda ahamiyatlidir. Shuningdek, shoir o’z devonining she’riy mundarijasini berar ekan, she’riyatning g’azal, mustazod, murabba, muashshar, tarjiband, qasida, masnaviy, ruboiy, qit’a, fardi itloq kabi o’n xil janrda ijod qilganligini ta’kidlar ekan, ular “jami o’n rang guldur” [Табибий, инв.№6226:7а-в], deydi.

Nihoyat, shoir o’zining o’zbek va tojik tillarida yaratgan besh devoni va ularning nomlanishi haqida xabar beradi. Bu ma’lumotlarning barchasi Tabibiyning o’z davridagi iqtidorli shoirlardan biri sifatidagi qiyofasini ma’lum darajada belgilashga yordam beradi.

Umuman, Munis, Ogahiy, Tabibiy devonlari debochalari shoirning hayoti va ijodini, shuningdek, Xorazm tarixini o’rganishda ham muhim manbalardan biridir.

Debochalarda Alisher Navoiyning debochanavislik an’analari davom ettirilgan, shu bilan birga, debochalar shoirlar dunyoqarashi, davr voqea-hodisalariga munosabati, tarixchi olim sifatidagi fazilatlarini belgilovchi bir qator o’ziga xos jihatlarga ham egadir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Алишер Навоий. Бадоеъ ул-бидоя. МАТ, 20 жилдлик, 1-жилд. – Тошкент: Фан, 1987. – Б. 19.
2. Амонов Ш. Аҳмад Табибийнинг “Ҳайрат ул-ушшоқ” девони қўлёзмаси ҳақида айрим мулоҳазалар // Ўзбек филологиясида матншунослик ва манбашунослик муаммолари. III республика илмий-амалий анжумани материаллари. – Наманган, 2020 йил, 12 июнь. – Б. 220-223.
3. Амонов Ш. Аҳмад Табибийнинг “Ҳайрат ул-ушшоқ” девонидаги таржиъбандлар ҳақида // Ўзбек филологиясида матншунослик ва манбашунослик муаммолари. Халқаро илмий-амалий анжумани материаллари. – Наманган, 2021 йил, 19 июнь. – Б.202-206.
4. Мунис. Сайланма. – Тошкент: Фан, 1980.- Б.11, 214.
5. Мунис. Мунис ул-ушшоқ. ЎЗР ФАШИ, литография, инв. № 63, 6,7,13-варақлар.
6. Муҳаммад Ризо Огаҳий. Девон. Таъвиз ул-ошиқин. – Тошкент: Адабиёт, 2023. – Б.41,22,17.
7. Маткаримова С. Табибий – тазкиранавис (“Мажмуаи си шуаро шоҳи пайрави Фирузшоҳий”. Филол. фан. номз. дисс. автореф. – Тошкент: 2007. – 27 б.
8. Табибий. Мунис ул-ушшоқ. ЎЗР ФАШИ, қўлёзма, инв. № 6226, 6а-, 7а-, 8а-8б-варақлар.

O'ZARO TA'SIR, IJODIY MUSHTARAKLIK VA O'ZIGA XOSLIK

Yaqubov Islomjon Ahmedjonovich

ToshDO'TAU professori, filologiya fanlari doktori, O'zbekiston

E mail: islamjon.yakubov.61@mail.ru

10.52773/tsuull.conf.navoiy.2025/XGHK3987

Annotatsiya. Ushbu maqolada Oybekning "Navoiy", Barot Boyqobilovning "Navoiynoma", Omon Muxtorning "Navoiy va rassom Abulxayr" asarlari misolida bugungi o'zbek nasrida Jomiy va Navoiy obrazlari badiiy talqinlari o'rganilgan. Jomiy siymosining ijtimoiy-tarixiy voqelik, tarixiy-madaniy hayot va adabiy jarayon fonidagi badiiy talqinlari orqali ulug' mutafakkirning hazrat Alisher Navoiy bilan ustoz, do'st va ijodiy hamfikir sifatidagi munosabatlari tahlil va tadqiq etilgan. Xalqlar do'stligi tarixi, o'zaro ta'sir, ijodiy mushtaraklik va o'ziga xoslik singari muammolar xususida muayyan nazariy umumlashmalar chiqarilgan.

Kalit so'zlar. Roman, adabiy qahramon, poetik ifoda, ruhiy kechinma, o'zaro ta'sir, ijodiy mushtaraklik, o'ziga xoslik, she'riy roman, roman-dilogiya

INTERACTION, CREATIVE COMMUNITY AND INDIVIDUALITY

Abstract. This article analyzes the artistic representations of the figures of Jami and Navoi in modern Uzbek prose, with a focus on the works Navoi by Oybek, Navoinom by Barat Baykabilov, and Navoi and the Artist Abulkhair by Aman Mukhtar. The study examines how the image of Jami is portrayed within the context of socio-historical realities, cultural life, and the literary landscape, exploring his relationship with the great thinker Hazrat Alisher Navoi as a teacher, friend, and creative collaborator. The article offers theoretical generalizations regarding the historical and cultural significance of their friendship, their mutual influence, and their shared creative community, highlighting the uniqueness of their literary and intellectual bond.

Keywords: Novel, literary hero, poetic utterance, spiritual experience, interaction, creative community, uniqueness, poetic novel, novel-dilogy.

Abdurahmon Jomiy ilm-fanning turli sohalarini teran bilgan ulug' olim, bilimdon madaniyat arbobi, shoir va dostonnavis bo'lish barobarida serqirra hamda murakkab ijodida insonparvarlikni yoqlab, uning ziddi bo'lgan g'ayriinsoniy intilishlarni qoralagan. Uning yuksak mahorat bilan yaratilgan asarlari ta'siri o'z davrida hamda zamonlar osha elga manzur bo'lib kelgan va shunday bo'lib qolajak. Mana shu yorqin siymo bilan buyuk shoir, g'azal mulking sultoni Alisher Navoiy g'oyat yaqin do'st bo'lgan. Oralaridagi yigirma yetti yosh farq ham ularning bir-birlarini g'oyat hurmat qilishlariga monelik qilmagan. Ikkala alloma ko'plab ijtimoiy-siyosiy, adabiy-falsafiy, estetik masalalarda hamfikir, sirdosh va maslahatdosh, mashaqqatli ijodda esa ko'makdosh bo'lishgan. Bir-birlariga nisbatan ham ustozlik, ham shogirdlik burchini o'tash barobarida hamkorlikda el-ulus dardini chekkanlar.

Har ikkala shoirning asosiy mavzulari xalqparvarlik, insonparvarlik, gumanizm, odamiylikni ulug'lash, yovuzlik va jaholatni qoralash, yaxshilik va adolatni madh etish, insoniy muhabbatni kuylash, inson his-tuyg'ularini ifodalashdan iboratdir. Shuning uchun ham Navoiy ijod masalalari, ijtimoiy-siyosiy muammolar yuzasidan Jomiyga maslahat bilan murojaat qilsa, Jomiy o'z bitiglarini Navoiyga o'qish uchun berar, ijodi va faoliyatini sinchkovlik bilan kuzatib borar edi. Jomiy o'gitlaridan Navoiy astoydil sevinib, ularni bajonu dil qabul qilganidek, Navoiyning istak va takliflaridan Jomiy

MUNDARIJA CONTENTS	
Shuhrat SIROJIDDINOV. Turkiy dunyo hamkorligining mustahkam asosi Туркі әлем ынтымақтастығының мықты негізі	7
Қанат БАЙБОЛОВ. Екі халық арасындағы бауырлық пен достық рәмізі Ikki xalq qardoshligi va do'stligi simvoli	11
I SHO'BA. ALISHER NAVOIY ADABIY MEROSINING JAHON TAMADDUNIDA TUTGAN O'RNI SECTION I. THE PLACE OF ALISHER NAVAII'S LITERARY HERITAGE IN WORLD CIVILIZATION	
Boqijon TO'XLIYEV. Nasimiy va Navoiy nazmi – badiiy tafakkurning yangi bazmi	15
Islam JEMENEY. Әлішер Навои	23
Yashar QOSIM. Dohiy Alisher Navoiyning ulug' izdoshi (Muhammad Fuzuliy sheiriyatida poetik in'ikos tarzining o'ziga xosligi)	35
Qodirjon ERGASHEV. Renessans adabiyotida etologik janr taraqqiyoti	42
Əlimuxtar MUXTAROV. Nizami Gencevi ve Alişir Navai'nin tür ruhu eserlerinin ve araştırmacılarının gözü ile	47
Roviyajon ABDULLAYEVA. Alisher Navoiy fenomeni yoxud Navoiy ijodining olamshumul ahamiyati	52
Насриддин НАЗАРОВ. Гуманизм и креативность в творчестве Наваи как фактор обеспечения связей между народами Евразии	60
Burobiya RAJABOVA. O'zbek navoiyshunoslari Jomiy haqida	67
Karomat MULLAXO'JAYEVA. Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy g'azallarida Yusuf (a. s.) siymosining badiiy talqinlari	77
Tozagul MATYOQUBOVA. Sharq adabiyotining yetuk tadqiqotchisi	82
Nosir JO'RABOYEV. Ikki turkman hukmdori ijodi va Alisher Navoiy	87
Молдасанов Е.М., АБДУВАЛИТОВ Н.Б. Әлем әдебиетінің асқар шыңы (Әлішер Науаидың 584 жылдығына орай)	95
Hulkar HAMROYEVA. Alisher Navoiy ijodida san'at talqini	99
Злиха ЖАНТАСОВА. Шығыс әдебиетінің қазақ фольклорындағы көрінісі	103
Sherxon QORAYEV. Alisher Navoiy Badaxshon shohi va shoir Sulton Muhammad La'liy ijodi tadqiqotchisi (Navoiy va uning zamondoshlari tazkiralari ma'lumotlari asosida)	109
Ahmad AKHLAQUE, Asror Allayarov. Alisher Navoi's creative works: a scientific exploration	115

Fayzulla ISKANDAROV, Dostonjon Tojiev. “Alisher Navoi international award”: establishment and historical significance for the turkic world	118
Diyora ABDUJALILOVA. Alisher Navoiy va Yahyobey Toshlijali dostonlarida shayx va avliyolar timsoli	124
Orifjon OLIMJANOV. Alisher Navoiy va Lorendeli Hamdiy “Layli va Majnun” dostonlari kompozitsiyasiga doir	131
II SHO‘BA. NAVOIY NAZMIY, NASRIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI SECTION II. ISSUES OF STUDYING NAVAIY'S POETRY, PROSE AND SCIENTIFIC HERITAGE	
Nurboy JABBOROV. Alisher Navoiy “Tarixi anbiyo va hukamo” asarining siyarnoma turkumida tutgan o‘rni	136
Nusratullo JUMAXO‘JA. Navoiyning yigitlik lirikasiga mansub mustazodi	149
Maqsud ASADOV. Alisher Navoiy “Tanbeh”larining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari (“Mahbub ul-qulub” asari misolida)	155
Dr. Kemal Yavuz ATAMAN. Ali Şir Nevaî beyitlerinde kulluk şuuru	160
Zuhridin ISOMIDDINOV. Navoiyning “qaychi” g‘azali	165
Baxtiyor FAYZULLOYEV. Qo‘qon adabiy muhitida Navoiyga izdoshlik	170
Iqboloy ADIZOVA. Adabiy ta’sir va poetik tafakkurning yangilanishi	177
Nafas SHODMONOV, G‘iyosiddin SHODMONOV. Olti dostonida Odam Ato timsoli talqini	185
Faridaxon KARIMOVA. Xorazm adabiy muhitida debochanavislik an’analari	193
Islomjon YAQUBOV. O‘zaro ta’sir, ijodiy mushtaraklik va o‘ziga xoslik	200
Shavkat HAYITOV, Gulshod SHOYIMOVA. Alisher Navoiyning nabotot va hayvonot olamiga munosabati	205
Obidjon KARIMOV. Alisher Navoiy irfoniy olamining yangicha talqini	212
Gulbahor ASHUROVA. O‘zbek ayol shoiralari ijodida Alisher Navoiy obrazi tasvirlari	216
Qo‘ldosh PARDAYEV. Navoiy g‘azallariga Muqimiyning nazira va taxmislari	221
Ilyos ISMOILOV. Abror hayrati	226
Shermuhammad AMONOV, Abdulhaq RAHIMI. Alisher Navoiy mustazodiga bog‘langan muxammas haqida	229
Zilola AMONOVA, Shahlola SAFAROVA. “Farhod va Shirin” dostonidagi na’t boblarning manbalari va badiiyati	235
Abdulhamid QURBONOV. Badiiy matn va tasviriy vositalar mutanosibligi	242
Muqaddas TOJIBOYEVA. Abdulla Qodiriy romanlarida Alisher Navoiyga izdoshlik masalalari xususida	248
Orzigul HAMROYEVA. Radifning bayt kompozitsiyasidagi o‘rni	252

Ma'rifat RAJABOVA. Xalq maydon kulgi san'ati belgilarining Navoiy ijodidagi ko'rinishlari	256
Nodira SOATOVA. "Farhod va Shirin" dostoni – an'ana takomili, taraqqiysi hamda sintezi sifatida	260
Umida RASULOVA. "Alisher Navoiy" romanida obraz poetikasi	266
Marg'uba ABDULLAYEVA. Yetti sayyora: badiiy talqin va ilmiy dunyoqarash	269
Sohiba UMAROVA. Suyuma G'aniyeva – navoiyshunos	273
Zuhra MAMADALIYEVA. Alisher Navoiy "Xamsa"sida mirrix obrazining majoziylik xususiyatlari	277
Aziz RAJABIY. Alisher Navoiy g'azallarining ohang jilolari (Yunus Rajabiy musiqiy merosi misolida)	282
Zarif QUVONOV. "Hayrat ul-abror"ning yangi tadqiqatlari xususida	286
Farruxbek ABDALIYEV, Gulnoza OSMANOVA. "Xamsa"da "kampir" obrazi talqini	290
Nafisa RAXMANOVA. Ramziy-majoziy obrazlar ta'vili haqida mulohazalar	293
Kamola ULUG'MURODOVA. Navoiy nazmida Layli obrazining badiiy talqini	299
Mavluda ORTIQOVA. Alisher Navoiyning "Nasoyim ul-muhabbat" asarida valiylarga xos sifatlar talqini	303
Jamila EISAR. Alisher Navoiyning she'riyatida oyina timsolining talqini ("G'aroyib us-sig'ar misolida")	308
Azizbek TOSHPO'LATOV. Alisher Navoiyga izdoshlik: Ahmad Tabibiy taxmislari	313
Sevara PARMONOVA. Tasavvufiy tazkiralari va Alisher Navoiy asarlarida Ibrohim Adham nomining zikr etilishi	318
III SHO'BA. ALISHER NAVOIY ASARLARINING MANBALARI VA MATNIY TADQIQI SECTION III. SOURCES AND TEXTUAL RESEARCH OF ALISHER NAVAI'S WORKS	
Dilnavoz YUSUPOVA, Umedullo MAHMUDOV. Alisher Navoiyning "Munshaoti Abdulloh Marvorid"dan o'rin olgan forsiy maktublari xususida	323
Manzar ABDULXAYROV. Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostoni tabdillari tahlili	330
Dr. Farhad RAHIMI. Senglah Sözlüğünün Feraği Düzeltmeleri ve Feraği'den Yanlış ktarmaları Üzerine	335
Gholamreza RAZMI. Özbekistan'da yayimlanmış iki Hayretü'l-ebrar'in tashih edilmiş metnindeki hatalarin sebeplerine bir bakiş	352
Altay NOORULLAH. Navoiy asarlarida tinish belgilarining yanglish ishlatilishi	365

Sevda BEHESHTI. Navai's Poetry as Reflected in Miniature Paintings (A study of Illustrated manuscripts preserved in Iranian collections)	376
Oysara MADALIYEVA. Alisher Navoiyning dastlabki ikki devoni Hamid Sulaymon nigohida	384
Dr. Siyamek HÜSSEYINALIZADE (Ergin Avşar). Amîr Alî Şîr Nevaî'nin şiirlerinde Şamanlığa aid Terimler ve ritüeller	395
Ozoda TOJIBOYEVA. Parij kulliyotidagi "Favoyid ul-kibar"ning matniy xususiyatlari	407
Husnigul JO'RAYEVA. Husayn Boyqaro – Husayniy adabiy merosining O'zbekistonda o'rganilishi	412
Dilnoza RUSTAMOVA. Alisher Navoiy toshbosma devonlaridagi ayrim g'azallar matnining qo'lyozma nusxalar bilan qiyosi	417
Erfan ESHGHÎNOUR. Fâni Divanındaki Avnî Divanından Tercüme Olunmuş Şiirler Üzerine	423
Lochinbek AHMADALIYEV. Po'latjon Qayyumiy tazkiralarda Alisher Navoiy faoliyatining yoritilishi	433
Dilnavoz SATTOROVA. Navoiy g'azallariga Sa'diy taxmislari	438
IV SHO'BA. ALISHER NAVOIY ASARLARINING XORIJIY TILLARGA TARJIMASI VA CHET ELLARDA O'RGANILISHI SECTION IV. TRANSLATION OF ALISHER NAVA'I'S WORKS INTO FOREIGN LANGUAGES AND STUDY ABROAD	
Hulkar HAMROYEVA, Shahlo NARALIYEVA, Ozodaxon MUSAYEVA. Qozog'istonda Mir Alisher Navoiy ijodining o'rganilishi	444
Abdulhay SOBIROV, Zamira DJURABAYEVA. "Muhokamat ul- lug'atayn" – turkiy xalqlar leksikasining so'nmas bulog'i	451
Münevver TEKCAN, Serpil Yazıcı ŞAHİN. Muhakamat al-lughatayn's literary and academic aspects.	455
Бермет ЗАКИРОВА, Дамилова НУРИЙЛА. Алишер Навоинин чыгармаларындагы тилдик каражаттар аркылуу студенттин кеп маданиятын өстүрүү	462
Nishonboy XUSANOV. "Hayrat ul-abror"dagi teonimlarning semantik va badiiy xususiyatlari	468
Mardon RAHMATOV. Qo'shma fe'l komponentlari inversiyasi	472
Rashid ZOHID. Hayot – firoq manzili	478
Shahlo HOJIYEVA. Alisher Navoiy badiiy kashfiyotlari – Cho'lpon estetik tafakkuri yangilanishi omili	482
Mo'minjon SULAYMONOV. Alisher Navoiy davrida isiriq solinganmi?	488
Abdumurod TILAVOV. Alisher Navoiy ma'naviy merosi va zamonaviy ta'lim	492
Nilufar RASULOVA. Alisher Navoiyning boqiy merosi jahon tillarida	497
Ozodaxon MUSAYEVA, Gulchehra SULTONOVA. "Muhokamat ul- lug'atayn" asaridagi turkiy fe'llar va omonim so'zlar tahlili	502

Iroda ISHONXANOVA. Alisher Navoiy hayoti va ijodining “Литература” darsliklarida aks etishi	505
Shahlo NARALIYEVA, Farrux ABDALIYEV. Hazrat Navoiy ijodida nutq madaniyati	514
АШИРОВА Т.К., КАРАЕВА Н.О., ЗАКИРОВА Б.А. Алишер Навоинин чыгармаларын санарип платформалар аркылуу жайылтуу	518
Dilorom YULDASHEVA, Shahlo NARALIYEVA. Alisher Navoiyning didaktik qarashlari	523
Komiljon ABDULLAYEV. Ta’lim tizimi bosqichlarida Alisher Navoiy hayoti va ijodini o’rgatishda fanlararo integratsiyadan foydalanish	527
Gulnoza YULDASHEVA, Sevinch UBAYDULLAYEVA. “Lison ut-tayr” dostonining ayrim morfemik xususiyatlari tahlili	531
Feruza DJUMANIYAZOVA. Alisher Navoiy ijodida milliy etnosport o’yinlari	534
Hamida JURAQOBILOVA. O’zbek she’riy matnlaridagi kognitiv metaforalarning fransuz tilida ifodalanishi	539
Abdug’ani NASRIDDINOV. Navoiyshunoslikda yangicha yondashuv	544
TEZISLAR ADABIYOTSHUNOSLIK	
AHMADOVA Shohsanam. Hofiz Xorazmiy va Alisher Navoiy ijodida zohid obrazi tasviri	550
ABDURAIMOVA Xafiza. Alisher Navoiy g’azaliyotida Doro obrazi talqinlari	553
ALIYEVA Sevinch. Anbiyolar haqidagi manbalarda Iso payg’ambar obrazi tasviri	556
ALMARDONOVA Aziza. Alisher Navoiy tarji’bandlarida dunyo ramzi	561
DEHQONOV Akramjon. Bir g’azal sharhi	564
DOLIMOV Shokir. «Hayrat ul-abror» dostoni sharhining rus tiliga tarjimasi xususida	567
GAFUROVA Shaxnoza. Navoiy me’rojnoma baytlarida qo’llangan badiiy san’atlar	569
IBOTOVA Madina. Alisher Navoiy g’azallarida jon va ishq munosabatining badiiy ifodasi	572
MEYLIYEV Xudoyberdi. Navoiy va zamondoshlari asarlarida Mirzo Mironshoh saroyi adabiy muhiti va shoir Lutfulloh Nishopuriy ijodiy faoliyatining yoritilishi	576
MUQUMOVA Surayyo. “Nasoyim ul-muhabbat”: ism, xosiyat va xususiyat	579
NASRULLAYEV Elmurod, SIROJIDDINOVA Sevinch. Xalq og’zaki ijodida Navoiy timsoli talqini	581

NURULLAYEVA Hulkaroy, MAMADALIYEVA Madina. Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asarini o‘qitish bo‘yicha ayrim mulohazalar	584
OLIMJONOV Davronbek. “Boburnoma” asarida tarixiy shaxslar tavsifi (Alisher Navoiy shaxsi misolida)	587
PARDAYEVA Nigora, PIRNAZAROVA Barno. Navoiy lirikasida kichik lirik janrlar	589
SHOMURODOV San‘at. Alisher Navoiy va Husayn Boyqaro munosabatlari isajon sulton talqinida	593
TO‘XTAMURATOV Furqat. Alisher Navoiy g‘azaliga Muhsiniy tatabbu’si	596
TURDIYEVA Maftuna. “Layli va Majnun” dostonlari kompozitsiyasidagi ba’zi farqli jihatlar	599
UMAROVA Dildor. Alisher Navoiy asarlarida sukut go‘zalligi ifodasi	602
UMAROV Sardorbek. Ma’rifatning haqiqati – hayratdir	604
YANGIBOYEV Shavkat. Ito haqida	607
TILSHUNOSLIK	
YULDASHEVA Dilorom. Alisher Navoiy asarlarida rang-tus ifodalovchi birliklar	611
AXMADJANOVA Malika. Alisher Navoiy va o‘zbek tilining boyitilishi: ilmiy metodlar va uslublar	613
AKBAROVA Zulfizargul. Alisher Navoiy asarlarida qo‘llanilgan antonimlik hosil qiluvchi “Ahl” komponentli lug‘aviy birliklar tahlili	617
YUSUPOVA Dildora. Alisher Navoiy asarlarida qimmatbaho tosh nomlari	619
MUNDARIJA	622